

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar-fevral

Bugungi kunda xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Farg'ona viloyatida 2019 yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1585,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 111,0 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-fevral oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 309,6 mlrd. so'mga oshdi.

Farg'ona viloyatida hizmat ko'rsatish faoliyati, yanvar-fevral




2019 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %
Xizmatlar - jami	1585,9	111,0
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	94,7	102,6
moliyaviy xizmatlar	204,1	171,3
transport xizmatlari	339,3	103,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	314,1	100,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	39,9	102,1
savdo xizmatlari	521,6	108,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	50,4	100,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	69,4	105,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	31,1	100,1
ijara xizmatlari	44,7	100,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	48,9	100,1
shaxsiy xizmatlar	86,8	102,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	14,0	137,6
boshqa xizmatlar	41,0	104,8


Eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (171,3 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (137,6 %), savdo sohasidagi xizmatlar (108,5 %), ta'lim sohasi (105,8 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-fevral oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so‘m




Joriy yilning yanvar-fevral oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlarida 521,6 mlrd.so‘m, transport xizmatlarida 339,3 mlrd.so‘m, moliyaviy xizmatlarda 204,1 mlrd.so‘m, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida 94,7 mlrd.so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

**2019 yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar tarkibi
(jami hajmga nisbatan, %)**




Xizmatlar tarkibida eng katta ulushlarni savdo xizmatlari (32,9 %), transport xizmatlari (21,4 %), moliyaviy xizmatlar (12,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,9 %), shaxsiy xizmatlar (5,5 %) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,4 %), tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




2019 yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 39,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 3,8 mlrd. so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 36,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2019 yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, foizda



2019 yil yanvar-fevral oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 339,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 314,1 mlrd. so'mni, jami transport xizmatlarining 92,6 foizini tashkil etadi.

2019 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish surati, %




Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (171,3 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (137,6 %), savdo sohasidagi xizmatlar (108,5 %), hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (105,8 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**2019 yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %
Farg'ona viloyati	1585,9	111,0
Farg'ona sh.	716,7	118,5
Qo'qon sh.	205,3	105,3
Quvasoy sh.	25,4	107,3
Marg'ilon sh.	156,5	105,5
Oltiariq t.	43,8	105,4
Qo'shtepa t.	25,6	104,5
Bag'dod t.	34,2	105,2
Buvayda t.	32,2	105,3
Beshariq t.	34,0	105,2
Quva t.	38,6	106,7
Uchko'prik t.	42,5	105,0
Rishton t.	32,5	103,3
So'x t.	12,6	103,3
Toshloq t.	35,0	105,7
O'zbekiston t.	35,1	107,4
Farg'ona t.	47,7	107,7
Dang'ara t.	31,9	105,4
Furqat t.	15,6	103,2
Yozyovon t.	20,7	106,1

2019 yil yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari Farg'ona (118,5 %), Quvasoy shaharlarida (107,3) hamda Farg'ona (107,7 %), O'zbekiston (107,4 %) va Quva tumanlarida (106,7 %) qayd etildi.

2019 yil yanvar-fevral oylarida Farg'ona viloyatida jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi
(jami hajmga nisbatan %)



2019 yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan eng yuqori ulushni Farg'ona (45,3 %), Qo'qon (12,9 %) va Marg'ilon shaharlarida (9,9 %), Farg'ona (3,0 %) hamda Oltiariq tumanlarida (2,8 %) qayd etildi.